

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli Farmoni topshiriqlarining ijrosi haqida
MA’LUMOT**

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas’ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
1.	25.2-band. 2024-yil 1-martga qadar suv kanallarini rekonstruksiya qilish ishlariga Davlat budjetidan qo‘shimcha ajratilgan 500 milliard so‘m mablag‘lar doirasida kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlash ishlarini yakunlash choralarini ko‘rish.	2024-yil 1-mart	D.Xodjiaxmedov, Sh.Sultonov, N.Xo‘jaqulov (u)	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (25.12.2023-y. PQ–404-son) hamda Vazirlar Mahkamasining (21.12.2023-y. 21-dekabrdagi 672-son) qarorlariga muvofiq 2024-yilda kanallarni rekonstruksiya qilish bo‘yicha manzilli dastur tasdiqlangan. Ushbu manzilli dasturga 75 ta (8 ta avvalgi yillardan o‘tuvchi va 67 ta yangidan boshlanuvchi) obyekt kiritilib, 71 ta obyektni hamda 554,5 km kanallarni foydalanishga topshirish uchun 676,7 mlrd so‘m ajratilgan. 554,5 km magistral va xo‘jaliklararo kanallarga tegishli jami 75 ta loyihani moliyalashtirish 15-yanvardan boshlangan bo‘lib, bugungi kunga qadar 663,4 mlrd so‘m mablag‘ to‘lovlari amalga oshirilgan. Hozirda, 2024-yil uchun aniqlashtirilgan limit 670,4 mlrd. so‘mni (dastlabki ajratilgan limitdan 6,3 mlrd. so‘m iqtisod qilindi hamda boshqa obyektlarga yo‘naltirildi) tashkil etdi. 2024-yilning 5-dekabr holatiga 75 ta obyekt doirasida jami 554,1 km (100%) kanallar rekonstruksiya qilindi, shundan 436,8 km kanallar betonlashtirilgan. 68 ta obyektida qurilish ishlari to‘liq yakunlanib, 68 tasi belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgan. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalarning davlat budjeti qismi bo‘yicha “Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarishni yaxshilash 2-faza” loyihasiga 120,8 mlrd. so‘m ajratilib, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 159 km kanallarni modernizatsiya qilish ishlarini yakunlash belgilangan. Hisobot davrida 60,8 mlrd so‘m o‘zlashtirilib, 80 km qismida modernizatsiya ishlari bajarilgan. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida xalqaro moliya institutlari va xorijiy investitsiya mablag‘lari hisobidan Jahon banki ishtirokida “Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. 2-faza” loyihasining Davlat budjeti qismi bo‘yicha Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 107,3 km (98,8 km kanallarni betonlashtirishva 8,5 km qirg‘oqlarni mustahkamlash) hamda Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Orolbo‘yi havzasida suv resurslarini iqlim o‘zgarishiga mos holda boshqarish” loyihasi doirasida Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida 8,2 km kanallarni betonlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
				Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasining "CITIC Construction", "China CAMC Engineering" va boshqa nufuzli kompaniyalari bilan kelajakda jami 1,3 ming km (<i>Qashqadaryo 319,8 km, Buxoro 64,1 km, Namangan 22,9 km, Surxondaryo 904 km</i>) kanallarni rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Buning uchun Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi 246-F-sonli va 6-maydagi 278-F-sonli farmoyishlari qabul qilinib, hozirda loyihalarning texnik- iqtisodiy asoslari (<i>TIA</i>) uchun tegishli ekspertiza xulosalari olinishi bo'yicha ishlar olib borilmoqda. <u>Ma'lumot uchun:</u> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (07.05.2024-y. PF-74-son) Farmoni va Vazirlar Mahkamasining (15.04.2024-y. 33-son) Rayosat majlisi bayonining 6-ilovasi 11-bandiga muvofiq, ushbu topshiriq ijro muddati 2025-yil 31-dekabrga qadar uzaytirish ma'qullangan.
2.	3-ilova, 3-band. Suvdan foydalanish va suv iste'moli hisobini yuritishda "Smart Water" ("Aqlli suv") hamda shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	2024-yil davomida	X.Quvondiqov, N.Galipshin (u)	Topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va barcha viloyat hokimliklari bilan hamkorlikda 2024-yilda suv xo'jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, tasdiqlangan. Mazkur chora-tadbirlar rejasida 4 755 ta suv xo'jaligi obyektlarida "Aqlli suv" va 2 647 ta meliorativ kuzatuv quduqlarida yer osti sizot suvlari sathi va ularning minerallashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qiluvchi "Dayver" qurilmalarini o'rnatish hamda 20 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarining boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish rejalashtirilgan. Hozirgi kunga kelib mahalliy budjet mablag'lari hisobidan 1 527 ta "Aqlli suv" va 2 110 ta "Dayver" qurilmalari o'rnatilib, 14 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarining boshqaruv jarayonlari avtomatlashtirilgan.
3.	3-ilova, 4-band. Suvning qadr-qimmati haqida keng ko'lamli axborot kompaniyasini o'tkazish. Yig'ilgan to'lovlar hududning suv infratuzilmasini rivojlantirish va hududlar farovonligini oshirishga sarflanishi haqida tushuncha beruvchi kompaniya o'tkazish.	2024-yil mart	R.Qarshiyev, D.Kdirbayev, Sh.Suyunov (u)	Ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan hamkorlikda suvning qadr-qimmati haqida keng ko'lamli axborot kompaniyasini o'tkazish bo'yicha "Media-reja" tasdiqlangan. Mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, suvdan foydalanish madaniyati va "Suv tekin emas" g'oyasini keng targ'ib, tashviq qilish maqsadida vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida respublikamiz suv xo'jaligi tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijalari,

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
	Bunda, suv iste'molchilarining resursga bo'lgan munosabatini o'zgartirish uchun suv taqchilligi ortib borayotgani haqidagi prognoz-larni ommalashtirish.			yangilik va o'zgarishlar haqida 50 dan ortiq axborot va materiallar joylashtirilgan. Davlat dasturida vazirlikka belgilangan vazifalar ijrosi haqida saytda tahliliy ma'lumotlar (https://suvchi.gov.uz/uz/posts/1545735855/4805) e'lon qilingan.
4.	3-ilova, 6-band. Beton qoplamali magistral va xo'jaliklararo kanallarning ulushini oshirish.	2024-yil mart	D.Xodjiaxmedov, Sh.Sultonov, N.Xo'jaqulov (u)	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (25.12.2023-y. PQ-404-son) hamda Vazirlar Mahkamasining (21.12.2023-y. 21-dekabrda 672-son) qarorlariga muvofiq 2024-yilda kanallarni rekonstruksiya qilish bo'yicha manzilli dastur tasdiqlangan. Ushbu manzilli dasturga 75 ta (8 ta avvalgi yillan o'tuvchi va 67 ta yangidan boshlanuvchi) obyekt kiritilib, 71 ta obyektni hamda 554,5 km kanallarni foydalanishga topshirish uchun 676,7 mlrd. so'm ajratilgan. 554,5 km magistral va xo'jaliklararo kanallarga tegishli jami 75 ta loyihani moliyalashtirish 15-yanvardan boshlangan bo'lib, bugungi kunga qadar 663,4 mlrd. so'm mablag' to'lovlari amalga oshirilgan. Hozirda, 2024-yil uchun aniqlashtirilgan limit 670,4 mlrd. so'mni (dastlabki ajratilgan limitdan 6,3 mlrd. so'm iqtisod qilindi hamda boshqa obyektlarga yo'naltirildi) tashkil etdi. 2024-yilning 5-dekabr holatiga 75 ta obyekt doirasida jami 554,1 km (100%) kanallar rekonstruksiya qilindi, shundan 436,8 km kanallar betonlashtirilgan. 68 ta obyektida qurilish ishlari to'liq yakunlanib, 68 tasi belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgan. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida xalqaro moliya institutlari va xorijiy investitsiya mablag'lari hisobidan Jahon banki ishtirokida "Farg'ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. 2-faza" loyihasining Davlat budjeti qismi bo'yicha Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 107,3 km (98,8 km kanallarni betonlashtirish va 8,5 km qirg'oqlarni mustahkamlash) hamda Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Orolbo'yi havzasida suv resurslarini iqlim o'zgarishiga mos holda boshqarish" loyihasi doirasida Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida 8,2 km kanallarni betonlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasining "CITIC Construction", "China CAMC Engineering" va boshqa nufuzli kompaniyalari bilan jami 1,3 ming km (Qashqadaryo 319,8 km, Buxoro 64,1 km, Namangan 22,9 km, Surxondaryo 904 km) kanallarni rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
				Buning uchun Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-apreldagi 246-F-sonli va 6-maydagi 278-F-sonli farmoyishlari qabul qilinib, hozirda loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari (TIA) uchun tegishli ekspertiza xulosalari olinishi bo'yicha ishlar olib borilmoqda. <u>Ma'lumot uchun:</u> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (07.05.2024-y. PF-74-son) Farmoni va Vazirlar Mahkamasining (15.04.2024-y. 33-son) Rayosat majlisi bayonining 6-ilovasi 11-bandiga muvofiq, ushbu topshiriq ijro muddati 2025-yil 31-dekabrga qadar uzaytirish ma'qullangan.
5.	3-ilova, 7-band. Qishloqlar hududidan o'tadigan ariqlar va ichki suv obyektlari joylashgan yerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va kadastr pasportlarini taqdim qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.	2024-yil 25-oktabr	T.Butunbayev, B.Minasipov (u)	O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastr to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (22.06.2021-y. 389-son va 22.10.2022-y. 620-son) qarorlari bilan qishloqlar hududidan o'tadigan ariqlar va ichki suv obyektlari joylashgan yerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va kadastr pasportlarini tayyorlatish ishlari tartibga solingan. Mazkur tartib asosida respublikamizdagi 13,2 mingta ariq va ichki suv obyektlari foydalanishidagi 118,5 ming gektar yerlar davlat ro'yxatidan o'tkazilib, kadastr pasporti shakllantirilib, pasportini taqdim qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.
6.	3-ilova, 8-band. Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha "Suvchilar maktabi"ning 2-bosqichini tashkil qilish.	2024-yil fevraldan boshlab	R.Qarshiyev, D.Kdirbayev (u)	2024-yilning 3-fevralidan boshlab "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti va "Agrobank" ATB bilan hamkorlikda "Suvchilar maktabi"ning 2-bosqichi yo'lga qo'yilib, sohaga aloqador loyihachilar, pudratchilar, fermer xo'jaliklari va klaster korxonalari rahbar-xodimlarining bir haftalik malaka oshirish kurslari tashkil qilingan. 2-bosqichda 200 dan ortiq suv tejoychi texnologiyalar loyihalarini ishlab chiquvchi tashkilot xodimlari, 1 000 dan ortiq viloyat va tuman ishchi guruh a'zolari hamda vazirlik va idora rahbarlari, 9 000 ga yaqin fermer va agroklastar rahbar va suvchilarini o'qitish rejalashtirilgan. O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda "Suvchilar maktabi" ning tajriba maydonlari tashkil qilingan bo'lib, "Suvchilar maktabi" o'quv binosi va tajriba maydonlarida 2024-yil hisobot davriga qadar sohaga aloqador loyihachilar, pudratchilar, fermer xo'jaliklari va klaster korxonalarining 12 mingdan ortiq (shundan, 1 547 nafar loyihachilar, 11 095 nafar fermer

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
				xo'jaliklari rahbarlari va suvchilari hamda 113 nafar suv xo'jaligi xodimlari) rahbar-xodimlari o'qitildi. Bundan tashqari, "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalariga qabul qilingan rahbar-xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish maqsadida 6–8-iyun kunlari Suv xo'jaligi vazirligi binosida "Suvchilar maktabi" hamda hududlardagi filiallari binosida o'qitish ishlari tashkil etildi va unda 159 ta tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalaridan jami 900 nafardan ziyod mutaxassislar ishtirok etdi. Shuningdek, joriy yilning 12-noyabr kunidan e'tiboran bir hafta mobaynida Qorqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyat havza boshqarma boshliqlari suv xo'jaligidagi barcha yo'nalishlarda malaka oshirish dasturi orqali o'qitildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarini o'qitish uchun Turkiya, Ispaniya va Xitoy davlatlaridan jami 20 nafar ekspertlar jalb etildi.
7.	3-ilova, 9-band. "Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish orqali sug'orish tarmoqlaridan suv yetkazib berishda elektr energiyasi iste'molini kamaytirish. Bunda: Elektr energiyasi va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish; Nasos stansiyalarida elektr energiya resurslarini tejash maqsadida muqobil energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish; Nasos stansiyalaridagi eskirgan 148 ta nasoslarni energiya tejamkorlariga almashtirish.	2024-yil davomida	T.Butunbayev, O.Abdullayev (u)	"Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish orqali sug'orish tarmoqlaridan suv yetkazib berishda elektr energiyasi iste'molini kamaytirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish maqsadida joriy yilning 20-noyabr holatiga 156 dona nasos, 154 dona elektrodvigatel, 105 dona kondensator, 87 dona chastota o'zgartiruvchi qurilma va 88 dona quyosh batareyalar o'rnatildi.
8.	5-ilova, 2-band. Markaziy Osiyoda suv xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan hamkorlikdagi ilmiy-amaliy loyiha-larni yo'lga qo'yish hamda ularni	2024-yil davomida	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, A.Urazkeldiyev (u)	Jahon bankining mablag'lari hisobidan "Qishloq xo'jaligi ekinlarini egatlab sug'orishda tuproq namligini boshqarishning gidravlik texnologiyalarini ishlab chiqish" mavzusidagi qiymati 200 ming AQSH dollar bo'lgan loyiha amalga oshirilgan.

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
	moliyalashtirish bo'yicha xalqaro grantlarni jalb qilish.			USAIDning mintaqaviy suv va atrof-muhit loyihasi mablag'lari hisobidan "Talimarjon suv omborining cho'kindilarini mexanik va biokimyoviy tahlil qilish" mavzusidagi qiymati 19,95 ming AQSH dollar bo'lgan grant loyihasi doirasida Talimarjon suv omborining cho'kindilarini mexanik va biokimyoviy tahlillari bajarilib, cho'kindilardan foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiya ishlab chiqiladi. BMT Taraqqiyot dasturi doirasida "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektorining "yashil iqtisodiyot"ga inklyuziv o'tishini qo'llab-quvvatlash va iqlimga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi bilimlari va innovatsion tizimini rivojlantirish (EU-AGRIN)" mavzusidagi qiymati 50 ming AQSH dollar bo'lgan loyiha amalga oshirilmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar doirasida qiymati 107 ming AQSH dollar bo'lgan asbob-uskunalar sotib olindi.
9.	5-ilova, 23-band. Transchegaraviy daryolar va turli gidroinshootlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarning oldini olishga qaratilgan hukumatlararo hamkorlikni yanada kuchaytirish.	2024-yil davomida	T.Butunbayev, R.Raximov, O.Xazratov (u)	Transchegaraviy daryolar va turli gidroinshootlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarning oldini olishga qaratilgan hamda gidrotexnika inshootlarinig sel oqimlari va toshqin suvlarini betalafot o'tkazib yuborishga tayyorgarlik holatini tekshiruvdan o'tkazish bo'yicha vazirlik huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasining (29.02.2024-y. 01/85-24-son) xatiga asosan 2024-yil 11-martdan 27-martgacha idoralararo ishchi guruh komissiyasi tomonidan o'rganish ishlari olib borilgan. Shuningdek, Vazirlikning 2023-yil 1-noyabrdagi 01/09-3580-sonli xati bilan 2024-yil uchun chegara hududida joylashgan o'ta muhim gidrotexnika inshootlarida inspektorlik tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha qo'shni davlatlar hududiga kirish hamda chiqish ishlarini amalga oshirishlari uchun mutaxassis xodimlarning ro'yxati Tashqi ishlar vazirligiga kiritilgan. Bundan tashqari, vazirlikning (01.11.2024-y. 01/15-4082-son) xati bilan 2025-yilda Turkmaniston hududida joylashgan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi obyektlarida faoliyat olib boruvchi ishchi-xodimlarning Turkmaniston hududi kirish hamda chiqishi uchun qo'shimcha ruxsatgoma olinishida amaliy yordam so'rab Turkmaniston Davlat Suv xo'jaligi qo'mitasiga murojaat qilingan.

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
				2024-yilning 6-noyabr kuni Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Davlatlararo Suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasi yig'ilishida ham ushbu masalalar muhokama qilingan. 2024-yil davomida qo'shni Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston Respublikalari va Turkmaniston bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlarda transchegaraviy daryolarda va turli gidroinshootlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarning oldini olishga qaratilgan bir qator masalalar muhokama qilingan. Vazirlik tomonidan kelgusida ham transchegaraviy daryolarda va turli gidroinshootlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib boriladi.
10.	8-ilova, 1-band. Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun loyihasi.	2024-yil mart	T.Butunbayev, O.Abdullayev (u)	Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qonun loyihasiga vazirlikning takliflari (19.03.2024-y. 02/14-254-sonli) xat bilan Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga taqdim etilgan.
11.	8-ilova, 2-band. Yer osti suvlariga quduqlarni burg'ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi.	2024-yil mart	T.Butunbayev, O.Abdullayev (u)	Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-dekabrdagi "Yer osti suvlariga quduqlarni burg'ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 685-sonli qarori qabul qilingan.
12.	8-ilova, 3-band. O'zbekiston Respublikasida ichimlik suv ta'minotini tubdan yaxshilashning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasini tasdiqlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi.	2024-yil sentabr	T.Butunbayev, X.Kabilov O.Abdullayev (u)	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini tubdan yaxshilashning 2035-yilgacha bo'lgan strategiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasiga takliflar (26.08.2024-y. 05/18-3131-sonli xat) "O'zsuvta'minot" AJga taqdim etilgan.

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
13.	8-ilova, 4-band. 2024–2026-yillarda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida normativ-huquqiy hujjat loyihasi.	2024-yil 30-mart	R.Qarshiyev, D.Kdirbayev (u)	Bajarilgan. Ushbu topshiriq ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2024–2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori loyihasi ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralar bilan belgilangan tartibda kelishilib, Adliya vazirligi xulosasi olingan holda vazirlikning 2024-yil 31-maydagi 02/06-550-sonli xati bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan reglamentga muvofiq, ko'rib chiqish uchun taqdim qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ–5-sonli qarorning 8.3-bandida "Agrobank" ATB tomonidan 2024-yil 1-fevraldan suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha shaffof onlayn kredit ajratish imkonini beruvchi "suvkredit.uz" elektron tizimi ishga tushirilishi; shuningdek, qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 11-bandida 2024-yil fevraldan boshlab "Suvchilar maktabi"ning 2-bosqichida loyihachilar, pudratchilar, fermer va klasterlar rahbar xodimlarining bir haftalik malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, har bir hududda tajriba maydonlarini tashkil qilish, har bir loyihani joyida o'rganadigan muhandis-irrigatorlarni tayyorlash hamda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish jarayoniga jalb qilish nazarda tutilgan. Shunga asosan, 2024-yilning 3-fevraldan boshlab "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti va "Agrobank" ATB bilan hamkorlikda "Suvchilar maktabi"ning 2-bosqichi yo'lga qo'yilibganligi hamda "Agrobank" ATB bilan birgalikda "suvkredit.uz" elektron platformasini ishlab chiqilib va onlayn kredit ajratish tizimini yo'lga qo'yilgan. <i>Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 7-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor (48-son bilan ro'yxatga olingan) yig'ilishi bayonining 5-bandida belgilangan topshiriqqa hamda yuqoridagilarga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025–2027-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi takomillashtirilib, qayta ishlab chiqildi hamda vazirlikning 2024-yil 5-dekabrda 02/07-1480-sonli xati bilan Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilgan.</i>

T/r	Qaror bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriq	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar	Amalga oshirilgan tadbirlar
14.	10-ilova, 5-band. Suv omborlari to'g'onlarining zilzilabardoshligini radiolokatsion kosmik monitoring qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi.	2024-yil mart	T.Butunbayev, R.Raximov R.Begmatov (u)	O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan tayyorlangan "Suv omborlari to'g'onlarining zilzilabardoshligini doimiy kosmik monitoring qilish tizimini joriy etish to'g'risida"gi qaror loyihasi project.gov.uz ga 2023-yil 19-oktabrda (VQL-3771/23-son (ID-87739 (V-1))) joylashtirilgan loyihasi vazirlikning (23.10.2023-y. 02/18-3453-sonli) xati bilan kelishib berilgan.